

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

kamaytirishga yordam beradi va o‘quvchilarga o‘z ishlarini samaraliroq tekshirish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning matematik qobiliyatlariga ishonchni oshirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarga murakkab bo‘lgan muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuterli matematik tizimlarni raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirish, vizual tasvirlarni taqdim etish, xatolarni kamaytirish, izlanish va tajriba o‘tkazish hamda murakkab muammolarni hal qilishni osonlashtirish orqali matematikani o‘rganishni yaxshilashi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliboyev S. “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida kreativ axborot ta’lim muhitini loyihalash.” - Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2025-y. 11-son.

2. Xoljigitov D. “Raqamli ta’lim muhitida matematik tizimlardan foydalanish samaradorligi.” - Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika miqyosdagi ilmiy-texnik anjuman-Jizzax, 2025.

3. Xoljigitov D. “Talabalarning matematik tizimlar bilan ishlashga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta’minoti.” - Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2025-y. 10-son.

4. Xoljigitov D., Xolmatova I. MATNLI MASALALARNI YECHISHDA MUTAHASSISLIK MALAKALARINI VA KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI // Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 395-399-betlar.

5. Xoljigitov D.X. va boshqalar. RATSIONAL TENGLAMALAR YECHIMLARI // ENG YAXSHI ILMIY TADQIQOT 2023. – 2023. – 8-12-betlar.

5. Xoljigitov D., Narziqulov S. TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNING KUNDALIK HAYOTDA ISHLATILISHI // Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 479-484-betlar.

6. Xoljigitov D., Shamsiddinov O. O 'QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO 'RSATUVCHI DASTURIY VOSITALARNING AVZALLIKLARI // Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 375-379-betlar.

7. Yo‘ldashev J., Xoljigitov D. MATEMATIKA O 'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI // Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 459-462-betlar.

8. Xoljigitov D., Xoliqova S. IQTIDORLI TALABALARGA MO 'LJALLANGAN O 'QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO 'RSATUVCHI DASTURIY TA 'MINOTNING TARKIBIY TUZILMASI // Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 384-387.

9. Xoljigitov D., Xolmanova K., Alimov S. MATEMATIK TIZIMLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O 'RNI // Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 112-114-betlar.

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI LUG‘AT TARKIBINING POLISEMANTIK TAVSIFI

Sindorov Lutfulla Kurolovich

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d.
(PhD) sindorov2020@gmail.com +99893-3751882*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oybekning “Navoiy” romani leksikasining polisemantik xususiyatlari lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilingan hamda matnning lug‘at tarkibida

uchraydigan ko‘p ma’noli birliklar aniqlanib, ularning semantik tuzilishi, kontekstual funksiyalari hamda badiiy-estetik vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: polisemantik birliklar, polisemiya, badiiy matn, lingvopoetika, konnotatsiya, denotatsiya, semantik kengayish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, Oybek, “Navoiy” romani, badiiy diskurs, leksik qatlam, semantik struktura, obrazlilik, kontekstual ma’no.

So‘zning ko‘p ma’no anglatishi tilda mustaqil tizim bo‘lib, u hodisa umumiy tilshunoslikda **polisemiya** termini bilan nomlanadi. So‘z dastlab bir ma’noni atash uchun qo‘llanilib, davrlar o‘tishi va turli lingvistik ta’sirlar vositasida bir necha ma’noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma’nolardan tarkib topishi, ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, ma’nolarning ayni so‘zning o‘ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi [8.47].

Badiiy matn leksikasining semantik tahlilida polisemantik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Oybekning “Navoiy” romanida qo‘llangan leksik birliklar ko‘p qatlamli ma’no tuzilishiga ega bo‘lib, ularning polisemantik xususiyatlarini aniqlash badiiy diskursning semantik mexanizmlarini ochishda muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida Oybekning “Navoiy” romani matni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa asar leksikasida uchraydigan polisemantik birliklarning semantik strukturasini tashkil etadi.

Polisemantik birliklar leksik-semantik tizimning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, ular bir leksema doirasida bir nechta ma’nolarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Turkologiyada ko‘p ma’noli so‘zlar bir qator ishlarda yoritilgan [3.23]. V.V.Vinogradov polisemiyaning ichki taraqqiyot mexanizmi sifatida izohlaydi, A.A.Ufimtseva esa uni semantik maydonlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi.

So‘z ma’nolarini o‘rganishning xilma-xil yo‘llari bor. Shulardan biri so‘zning semantik strukturasini ma’noli qismlarga ajratib tahlil qilishdir. Ko‘p ma’noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma’nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma’nodangina iborat bo‘lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bular barchasi birgalikda semantik strukturaning tashkil qiladi [9.56].

So‘zning leksik ma’nosi umumiy va farqlovchi semalarning o‘zidagina tashkil topmaydi. Leksik ma’no tarkibida ikkinchi darajali, hatto fakultativ semalar ham bo‘lishi mumkin. Bunday semalar qo‘shimcha semalar deb yuritiladi [5.34]. Ma’lumki, tilshunoslikda leksik ma’nolar bosh va hosila ma’nolarga ajratiladi. Bosh ma’no leksemaning boshqa ma’nolari taraqqiyotiga asos bo‘ladi. Shu o‘rinda unutmaslik kerakki, hosila ma’nolarning hammasi ham bosh ma’noga bog‘lanishi shart emas.

So‘zning ma’nosini nutqdan ajratib alohida tadqiq qilib bo‘lmaydi. Chunki leksik qurshov so‘z ma’nolarini ochib berishga ko‘maklashadi. Har bir so‘z o‘ziga xos leksik qurshovga ega bo‘lib, u bilan semantik va grammatik jihatdan bog‘lanadi. Shu bois, leksik qurshov tabiatini o‘rganmasdan turib, so‘z ma’nolarini aniqlash mushkul. Ko‘p ma’noli leksemalar semalarini bir-biridan farqlash uchun ularning leksik qurshovi ham qiyoslanadi. Natijada sememalarning mustaqillik darajasi belgilanadi.

Polisemiya so‘zning leksik ma’nolari o‘zaro yelpig‘ichsimon va zanjirsimon ko‘rinishda bog‘lanadi. Bu ko‘rinishlarning ikkisi ham bir polisemantik so‘zda uchraydi, murakkab ko‘rinishdagi bog‘lanishni yuzaga keltiradi. Ularning o‘zaro qaysi ko‘rinishda bog‘lanishi boshqa leksik ma’nolarning bosh ma’noga vositali yoki bevosita bog‘lanishi bilan aloqadordir [7.186]. Polisemantik leksema qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bitta so‘z sanaladi. Yana shuni aytish kerakki, ko‘p ma’nolilik, asosan, matnda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya’ni

polisemantik leksik birliklar qanchalik ko‘p bo‘lsa, matn ham shunchalik rang-barang, jozibador hisoblanadi. Buni «Navoiy» romani misolida ham ko‘rish mumkin.

Ko‘ngil – ruhiy olam, qalb ma’nosi eng asosiy va markaziy (yadro) ma’nodir. *Uning ko‘ngliga qattiq tegadigan so‘zlarni ham ochiq aytishdan, uni qizartirib bo‘zartirishdan toymadi* [1.431]. Bu yerda “ko‘ngil” so‘zi shaxsning ichki ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. G‘am – abstrakt hissiyot bo‘lib, u ko‘ngil bilan bog‘lanib, inson psixologiyasining markaziy maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, bu ma’no semantik jihatdan psixologik markaz (qalb)ni bildiradi.

Ko‘ngil – fe’l-atvor, xarakter ma’nosida. *“U yigitning ko‘ngli g‘oyat beg‘ubordir”*. Bu yerda ko‘ngil endi hissiyot emas, balki: insonning ichki axloqiy sifati. Romanda “ko‘ngil” leksemasi faqat emotsional markaz emas, balki insonning fe’l-atvori va axloqiy mohiyatini ifodalovchi semantik birlik sifatida ham qo‘llanadi. “Beg‘ubor ko‘ngil”, “oq ko‘ngil” kabi birikmalarda u shaxsning ichki pokligi, beg‘arazligi va insoniy fazilatlarini ifodalovchi konseptual birlik darajasiga ko‘tariladi.

Ko‘ngil qo‘ymoq (yoki bermiq) – mehr qo‘ymoq, sevmiq. *O’sha biyobon qiziga muncha ko‘ngil qo‘ygan ekansen!* [1.245]. Bu sahnada Arslonqul bir qizga nisbatan kuchli hissiy bog‘lanish holatida tasvirlanadi. “ko‘ngil qo‘ygan ekansen” – oddiy yoqtirish emas, balki chuqur hissiy berilish, sevgi. Bu yerda “ko‘ngil”: ichki ruhiy markaz, “qo‘ymoq” fe’li orqali obyektga yo‘naltiriladi.

“Ko‘ngil qo‘ymoq” birikmasi roman tilida sevgi va hissiy bog‘lanishni ifodalovchi asosiy frazeologik vositalardan biridir. Ushbu birlikda “ko‘ngil” insonning ichki ruhiy markazi sifatida tasavvur qilinib, ma’lum obyektga yo‘naltirilgan emotsional berilish ma’nosini yuzaga keltiradi.

Ko‘ngil bermiq – Roman matnida bu aynan shaklda kamroq, lekin “ko‘ngil qo‘ymoq” bilan sinonimik tizimda ishlaydi.

Ko‘ngli sovimoq – qiziqish yo‘qolmoq, ichki mayl susaymoq. *Sho‘x, suronli suhbatlarga ko‘ngil moyil emas. Sen bir nafas dilimga quvvat berding, kifoya* [1.140]. “Ko‘ngli sovimoq” semantik modeli roman tilida bevosita shaklda kamroq, ammo “ko‘ngil moyil emas” kabi konstruksiyalar orqali ifodalanib, qahramonning ichki qiziqishi va ruhiy faolligining pasayishini bildiradi.

Ko‘ngli qolmoq – ranjimoq, xafa bo‘lmoq. Oybekning “Navoiy” romanida “ko‘ngli qolmoq” iborasi qahramonning individual psixologik xususiyatlarini ochib beruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida qo‘llanadi. Xususan, “Aloddin Mashhadiy asabiy, jizzaki, sezgir shaxs; arzimagan narsaga kishidan ko‘ngli qoladi” jumlasida mazkur birlik shaxsning yuqori emotsional sezgirligi va tez ranjish xususiyatini ifodalaydi. Bu yerda “ko‘ngil” insonning ichki emotsional markazi sifatida talqin qilinib, “qolmoq” komponenti orqali ijtimoiy-emotsional aloqaning uzilishi semasi yuzaga keladi. Natijada ibora oddiy xafa bo‘lishdan ko‘ra chuqurroq – ya’ni ichki munosabatning buzilishi va ruhiy begonalashuvni bildiradi.

Ko‘ngli buzilmoq – roman matnida “ko‘ngli buzilmoq” iborasi qahramonning axloqiy va emotsional reaksiyasini ifodalovchi muhim lingvopoetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. *Yer qondan sirg‘anchiq edi. Nohaq qonni bosib, Arslonqulning ko‘ngli buzilib ketdi* [1.469] jumlasida mazkur birlik zo‘ravonlik va adolatsizlikka nisbatan yuzaga kelgan ichki ruhiy iztirobni ifodalaydi. Bu yerda “ko‘ngil” insonning axloqiy sezgirlilik markazi sifatida talqin qilinib, “buzilmoq” komponenti orqali ruhiy muvozanatning izdan chiqishi, jirkanish va ichki norozilik semalari yuzaga keladi. Natijada ibora oddiy kayfiyat buzilishidan ko‘ra chuqurroq – ya’ni axloqiy-estetik reaksiyani ifodalovchi semantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘ngli og‘rimoq – ranjimoq, ichdan aziyat chekmoq. Roman konteksti “Ko‘ngli og‘rimoq” ma’nosi roman matnida bevosita shaklda emas, balki achinish, iztirob va rahm kabi emotsional holatlar orqali ifodalanadi. Bu holat ko‘ngilning sezgir va ta’sirchan tabiati bilan bog‘liq.

Ko‘ngli yorishmoq – ruhiy yengillik, xursandlik, taskin. Asar matnida “ko‘ngli ochilmoq” iborasi qahramonning ruhiy tiklanish jarayonini ifodalovchi muhim lingvopoetik birlik sifatida qo‘llanadi. *“Otlarga xashak berish, bir qadar hordiq chiqarish uchun rabotlardan biriga qo‘nilgan vaqtdagina uning ko‘ngli yana ochildi [1.88]”* jumlasida mazkur birlik jismoniy hordiq natijasida yuzaga kelgan psixologik yengillikni ifodalaydi. Bu yerda “ko‘ngil” insonning ichki ruhiy holati sifatida talqin qilinib, “ochilmoq” komponenti orqali siqilishdan erkinlikka o‘tish, ruhiy muvozanatning tiklanishi semalari yuzaga keladi. Natijada ibora qahramon ruhiyatidagi dinamik o‘zgarishni, ya’ni tushkunlikdan yengillikka o‘tish jarayonini badiiy ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ko‘z” leksemasi. *“...qora, qiyg‘och ko‘zlarini yashirishga tirishdi”[1]*. Bu yerda to‘g‘ridan to‘g‘ri fiziologik ma’no mavjid, lekin kontekstda uyat, ichki holatni yashirish psixologik signal. Demak, “ko‘z” leksemasi denotativ + konnotativ qatlamda ishlagan.

“So‘z” leksemasi. *“...so‘zlarini qabul qilamen... [1]”*. Bu yerda “so‘z” oddiy nutq emas, qaror, va‘da, ijtimoiy majburiyat ma’nosidadir. Bu – pragmatik kengaygan polisemantik birlik hisoblanadi.

“Bosh” leksemasi. *“Badiuzzamon chiroyli boshini quyi solib...[1]”* Bu yerda 1-ma’no: tana a’zosi, kekin kontekstda itoat, uyat, bo‘ysunish “bosh egmoq” semantikasi orqali ramziy-psixologik ma’no yuzaga kelgan.

“Yurak” (lontekstual). To‘g‘ridan “yurak” so‘zi ko‘rinmasa ham: *“...ko‘nglida dard chayqalgandek, uh tortdi [1]”*. Bu yerda “ko‘ngil” orqali yurak/dil semantik maydoni ishlagan, semantik maydon ichidagi polisemantik parallelizm yuzaga kelgan.

“Til / so‘zlash” semantikasi. *“...fikrini tarixning cheksiz hodisalaridan keltirilgan misollar bilan quvvatladi [1]”*. Nutq oddiy gapirish emas, ilmiy-argumentativ diskurs “til/so‘z” birliklari: kommunikativ, intellectual ma’nolarda kengaygan

Yuqoridagi misollar asosida aniqlanishicha, “Navoiy” romanida polisemantik leksemalar: denotativ (asosiy) ma’no + konnotativ (qo‘shimcha) ma’no asosida ishlaydi. Ko‘pincha psixologik, ijtimoiy va pragmatik qatlamlarga kengayadi, kontekst orqali yangi semantik yuklama hosil qiladi. Natijada, polisemantik birliklar romanda: badiiy tasvirni chuqurlashtiruvchi semantik mexanizm obraz ruhiyatini ochuvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Polisemantik leksemalar romanda psixologik, ijtimoiy va siyosiy diskursda faol ishlaydi. Ular ko‘pincha: metaforik, metonimik, abstrakt kengayish orqali shakllanadi. Badiiy matnda semantik ko‘p qatlamlilikni ta’minlaydi. Natijada, “Navoiy” romanining leksik tizimi yuqori darajada polisemantik strukturaga ega diskurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oybek. Navoiy. Roman. / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir ha’yati: Bobur Alimov va boshq. / . – T.: «Sharq», 2004, – 496 b.
2. Жумаев А. XV аср номалари тили лексикасининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. –Т.: 1994. –23 б.
3. Кидирниязова М. Полисемия в ногайском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Махачкала, 2003;
4. Кўчкортосев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Т.: Фан, 1977. – 168 б.
5. Лебедева Т. Полисемия в русских народных говорах: на материале имен существительных. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –СПб., 2002;

6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. –288 б.
7. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975. –140 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1978. №4. –Б. 56.
9. Стернина М. Лексико-грамматическая полисемия в системе языка Опыт разработки интегральной теории полисемии. Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Воронеж, 1999. –37 с.
10. Холмонова З. «Бобурнома» лексикаси. –Т.: Фан, 2007. –176 б.
11. Шестак О. Полисемия терминов медицинских наук. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Краснодар, 2000. –19 с.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AFZALLIKLARI VA METODOLOGIK ASOSLARI

Mansurov Tolibjon Ziyodullo o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mansurovtolib97@gmail.com

[Tel: \(99\) 387 64 20](tel:(99)3876420)

Annotatsiya: Mazkur tezisda informatika o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv informatika fanini o‘qitishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilarni zamonaviy ta’lim talablari hamda raqamli jamiyat ehtiyojlariga mos tayyorlashga xizmat qiladi. Unda pedagogik, metodik, amaliy, kasbiy rivojlanish va ta’lim sifatiga ta’sir jihatlari alohida yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuv informatika o‘qituvchisi tayyorgarligini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirish va ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, o‘qituvchi tayyorlash, pedagogik afzalliklar, metodik yondashuv, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy rivojlanish, ta’lim sifati, raqamli savodxonlik.

Аннотация: В данной диссертации анализируются преимущества компетентностного подхода в процессе подготовки учителя информатики. Компетентностный подход способствует формированию не только теоретических знаний, но и практических навыков и квалификации в области преподавания информатики, а также подготовке учителей и учащихся в соответствии с современными образовательными требованиями и потребностями цифрового общества. Особое внимание уделяется педагогическим, методическим, практическим, профессиональным аспектам развития и влиянию на качество образования. По результатам исследования обосновывается важная роль компетентностного подхода в адаптации подготовки учителей информатики к международным стандартам, подготовке конкурентоспособных специалистов и повышении эффективности образования.

Ключевые слова: Компетентностный подход, подготовка учителей, педагогические преимущества, методический подход, практические навыки, профессиональное развитие, качество образования, цифровая грамотность.

Abstract: This thesis analyzes the advantages of the competency-based approach in the process of training a computer science teacher. The competency-based approach serves to form not only theoretical knowledge, but also practical skills and qualifications in teaching computer